Kasb madaniyatini rivojlantirishning ushbu innovatsion usullar AQSHning mehnat madaniyatini rivojlantirishning muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beruvchi muhim omillaridan hisoblanadi. Umuman olganda yoshlar faolligini oshirish va kasb madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullari bo‘yicha ko‘plab amaliy loyihalar amalga oshirilib kelinatyotgan bo‘lsada mazkur tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan ishlar, o‘rganilgan xorijiy tajribalarga tayanib, quyidagi taklif va tavsiyalarni aytib o‘tish joiz, fikrimizcha.

“Mehnat madaniyatni rivojlantirish – jamiyat va millatning ichki hayoti va idrokini mujassamlashtiruvchi qudratli kuch, inson va jamiyat rivojlanishining asosi sifatida umuminsoniy madaniyatning asosiy negizi sifatida iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o‘zgarishiga kuchli ta’sir etadi” [3]. Shu sababli uni rivojlantirishda innovatsion usullar bo‘lish yaxshi samara beradi. Ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarga javoban, mehnat madaniyatni takomillashtirishda innovatsion usullarni qo‘llash yangi yondashuvlarni talab etadi. Ushbu maqsadda quyidagi taklif va tavsiyalar o‘rinli deb hisoblaymiz: virtual va internatsional ta’lim platformalarida tegishli onlayn kurslar, seminarlar, vebinarlar tashkil etish; o‘qitish modullari yaratilgan sayti yoki mobil ilovalar foydalanishini ta’minlash; mehnat madaniyatni rivojlantirish borasida samarali tadqiqotlarni amalga oshirish; ilmiy qo‘llanmalar, tadqiqot xalqlari yaratish; mutaxassislarning mehnat madaniyati bo‘yicha doimiy ravishda bilimini oshirish uchun treninglar va ko‘rsatmalar tashkil etish; keyingi avlod uchun faqat mualliflarga oid, balki ularning tajribasini inobatga olgan holda yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish; jamoaviy ish, mehnat simulyatsiyalar va rol bo‘yicha o‘yinlarni aniqlashtirish; mahalliy va xalqaro tasarruflarda axborot sverkunini amalga oshirish; mehnat axborot banlarini yaratish; mehnat kengashlar va murakkab tashkilotlar bilan hamkorlik, bu vaqtda bir-birini o‘zaro o‘rganish; ularning foydalanish fursatlarini seminarlar, forumlar, konferensiyalar tashkil qilish; mehnat madaniyatni rivojlantirishda ijtimoiy media platformalarida mo‘jizalangan kontent yaratish; modernizatsiyalovchi bloglar, podkastlar va videolar orqali yoshlarni qiziqishlarni shakllantirish; mehnat rivojlanish markazlarini tashkil etish, ularda yoshlarga yangi mehnat loyihalarni amalga oshirish; mehnat rivojlanish markazlarida trenerlar va mentorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish; ish beruvchi-mutaxassis munosabatlarini rivojlantirish; ish beruvchilar va mutaxassislarning o‘zaro aloqa va hamkorligini yaxshilash maqsadida trening va kouching dasturlarini tashkil qilish; ish beruvchilar uchun mehnat madaniyat va unga taalluqli bilimlar bo‘yicha seminarlar tashkil etish va boshqalar.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish joizki, mehnat madaniyatning rivojlanishi yoshlarning faolligi, ularning bilim olishga intiluvchanligi va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish istaklarida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion usullarni qo‘llash, faqat mehnat bozorining talablariga javob beradigan mehnat xizmatini ta’minlashga yordam beradi. Mehnat madaniyatni rivojlantirishning turli innovatsion usullarini joriy etish ish unumdorligini oshishiga ishchanlik, mas’uliyat va intizomni rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa samarali ishlash uchun juda muhim. Ma’naviy qadriyatlarni formallashtiradi, yoshlarning o‘ziga xosliklarini, ijodkorligini va professional etikasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bledstein J. The Culture of Professionalism: The Middle Class and the Development of Higher Education in America. Norton. W.W. Norton & Company. 1976, p. 369.

(2). Brown D. America’s Culture of Professionalism. Past, Present, and Prospects. Palgrave, 2014, p. 300.

(3). Jumayeva G. Maktab o‘qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023, № 3, 500-bet.

(4). Shannan C. Introduction. The Labor of Culture. https://doi.org/10.1093/oso/9780199731626.003.0001, p. 1–20

(5). Yoshio Sugimoto. An Introduction to Japanese Society. Cambridge University Press. 2010, p .359.

Nabijonov Furqatjon Valijon o‘g‘li (Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; f.nabijonov@mail.ru)

IJTIMOIY XOTIRA VA MADANIY QADRIYATLAR STRUKTURASINING JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI

Annotatsiya. *Ijtimoiy xotira jamiyatning tarixiy tajribasi, ma’naviy merosi va kollektiv ongini saqlash hamda avloddan avlodga uzatishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasining o‘rni va ahamiyati, jumladan, ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi jamiyat barqarorligi, ijtimoiy birdamlik va taraqqiyotning muhim sharti ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy xotira, madaniy qadriyatlar, jamiyat hayoti, ijtimoiy ong, tarixiy xotira, madaniy meros.*

Набижонов Фуркатжон Валижон угли (независимый исследователь Наманганского государственного университета; f.nabijonov@mail.ru)

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ ПАМЯТИ И СТРУКТУРЫ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. *Социальная память выступает важным механизмом сохранения исторического опыта общества, духовного наследия и коллективного сознания, а также их передачи от поколения к поколению. В статье обосновывается роль и значение социальной памяти и структуры культурных ценностей в социальной жизни общества. Показано, что их взаимосогласованность является важным условием общественной стабильности, социальной солидарности и устойчивого развития.*

Ключевые слова: *социальная память, культурные ценности, жизнь общества, общественное сознание, историческая память, культурное наследие.*

Nabijonov Furqatjon Valijon ugli (Independent Researcher of Namangan State University; f.nabijonov@mail.ru)

THE ROLE OF SOCIAL MEMORY AND THE STRUCTURE OF CULTURAL VALUES IN THE LIFE OF SOCIETY

Annotation. *Social memory serves as an important mechanism for preserving the historical experience, spiritual heritage, and collective consciousness of society, as well as for transmitting them from generation to generation. This article substantiates the role and significance of social memory and the structure of cultural values in social life, demonstrating that their harmonious interaction constitutes an essential condition for social stability, social solidarity, and sustainable development.*

Keywords: *social memory, cultural values, social life, social consciousness, historical memory, cultural heritage.*

Kirish (Introduction). Jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti kishilarning siyosiy-ijtimoiy hamda ma’naviy-ma’rifiy jihatdan yetuklik darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda jamiyatning milliy tafakkuri muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat doirasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hamkorlik aloqalari yuqori bosqichga ko‘tarilib, ularning global miqyosdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunday globallashuv jarayonlari bir tomondan xalqlar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, milliy o‘zlikni saqlab qolish masalasini dolzarb muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu bois kishilarda milliy xotirani shakllantirish va uni mustahkamlab borish davlatlararo munosabatlarda milliy o‘ziga xoslikni namoyon etish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Globallashuv tendensiyalari doirasida yuzaga kelayotgan diniy radikal qarashlarning siyosiylashuvi, shuningdek, kosmopolitizm g‘oyalarining turli unsurlari kishilar tafakkuri va dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jamiyatning ma’naviy asoslarini zaiflashtirib bormoqda. Chunki “zamon o‘zgardi, yoshlar ham o‘zgardi-da yoki bunday holni “tabiiy jarayon” sifatida tahlil etishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ilm ahlini tashvishga solishi tabiiy” [1;46-b.].

“Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, giyohvandlik moddalarini iste’moli kengaymoqda, an’anaviy qadriyatlarni tan olmaslik, ijtimoiy tarmoqlaning rivojlanishi oqibatida yangicha rasm-rusumlarni paydo qilmoqda. Natijada ayrim yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘gonalashib, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani - achchiq bo‘lsa-da, haqiqat” [2;486-b.]. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-farmoni (3) ijrosi hamda 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [4] PF-60-farmonining 5 ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlangan bandida turli mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida kurashish, oila, mahalla va maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish, buyuk ajdodlarimiz merosini tadqiq etish va uni xalqimizga yetkazish kabi masalalar hamda vatamiz tarixini o‘rganish va targ‘ib qilish, tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini [5] ishlab chiqish muhim zaruriyat sifatida qo‘yildi.

Zamonaviy o‘zbek jamiyatining asosiy xususiyatlarini bugungi kunda uning milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini belgilab beruvchi omillari, ya’ni, milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishga qaratil-

gan islohotlar, inson kapitalini rivojlantirnishga yo‘naltirilgan qonun va qonunosti xujjatlar, ijtimoiy himoyani yanada kafolotlash va qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tashkil etmoqda. Ushbu islohotlar milliy davlatchilikning tobora mustahkamlanishi hamda milliy iftixor tuyg‘usini tarkib toptirishda, kishilarda milliy g‘oyani yanada rivojlantirishda, fuqarolarda davlat siyosatiniga ishonchni shakllantirishda o‘z ifodasini topmoqda. “Aynan ushbu milliy istiqlol mafkurasi, milliy g‘oya, milliy falsafa shaklida paydo bo‘layotgan munosabatlarimiz butun o‘tmishimizni yangicha nazar bilan baholash, uni qaytadan ko‘rib chiqish, shu asosda tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni shakllantirishni kuchli bir ehtiyoj darajasiga ko‘tarmoqda” [6;16-b.].

Jamiyatning o‘tmishi uni rivojlantirib borishga doir intilishlari jamiyatda yangi g‘oyani ijod etmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Asrlar osha shakllanib, davr ruhida sayqallanib kelgan milliy qadriyatlar ma’naviy-madaniy merosni vujudga keltiradi. Madaniy meros jamiyat uzviyligini ta’minlab ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan jarayonlarni hamda ijtimoiy o‘zarishlarni mazmuni anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, millatning milliy o‘ziga xoslikni shakllantiradi. Albatta, bunda milliy tarix asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi orqali kishilarda o‘z-o‘zini chuqurroq anglashga ko‘maklashib inson tarixiy tafakkurini mustahkamlaydi va uni barkamollik sari yetaklaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Biz o‘rganayotgan ijtimoiy xotira mavzusi hozirning dolzarb masalasi sifatida ontologik, aksiologik, tarixiy, madaniy hamda gneseologik tomondan o‘rganish ahamiyatlidir. Tadqiqotimiz markaziy nuqtasi bo‘lmish jamiyat ijtimoiy xotirasi mavzusi XVIII asrlarga kelib, Yevropaning mustamlakachilik tizimlarini kengayishi, manzilgohlarni kashf etilishi natijasida g‘arb turmush tarziga kirib kelgan yangicha yondashuvlar (biz bularni kundalik hayotda ishlatiladigan mahsulotlardan tortib, to kiyinish madaniyatidagi o‘zgarishlar va boshqa jihatlarda ko‘rishimiz mumkin) kishilar xotirasini transformatsiya bo‘lishga uchragan vaqtlardanoq tadqiqot masalasiga aylangan bo‘lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan mustamlakachilik tizimining parchalanishi, avj olgan milliy ozodlik harakatlari, millatlar va xalqlar o‘rtasida yuz bera boshlagan assimilatsiya va marginallashuv hodisalari ushbu mavzuning dolzarbligini oshirib yubordi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mamlakatimiz xususan O‘zbekistonda ijtimoiy xotira mavzusi milliy xotira yoki tarixiy xotira nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, kundalik ijtimoiy munosabatlarda ushbu xotirotlarni namoyon bo‘lishi, madaniy merosdimizda tutgan o‘rni, milliy tarixni kishilar ongida sotsiallashuvi, o‘tmishga bo‘lgan neytral munosabat va qarashlarga ta’siri muammosi tadqiq etishni talab etadi. Ayniqsa, jamiyat ijtimoiy xotirasini shakllantirish va rivojlantirishda qadriyatlarning ma’naviy ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ijtimoiy xotirasi mavjud boshqaruvning bevosita ta’sir doirasi hamda hukmron elitaning tarixiy kayfiyati, qolaversa, siyosiy liderning o‘tmishga nisbatan munosabati ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Bunda, albatta, tarixiy xotira keskin transformatsiyaga uchraydi.

Milliy ijtimoiy xotiraning strukturasi jamiyatning barqaror rivojlanishini jamiyat hayoti uchun foydali bo‘lgan agregatlar: bilim, malaka, rag‘bat orqali rivojanadi. A.V.Sokolovning fikricha, “ijtimoiy xotira tizim sifatida o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, u ikki qatlam: ijtimoiy ongsiz va madaniy merosdan iborat” [7;56-b.]. Birinchi qatlam genetik jihatdan irsiy bo‘lib u ijtimoiy instinktlarga bo‘lgan ehtiyojlarni ifodalasa, madaniy meros til, urf-odat, bilim va ko‘nikmalar shaklida o‘tgan ajdodlardan qolgan yoki mavjud avlod tomonidan yaratilgan moddiy va nomoddiy vositalardan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy ongsizlik qatlamini madaniy meros va urf-odatlar to‘ldiradi hamda tarix bilan to‘yintirilib milliy ijtimoiy xotirani shakllantiradi.

Milliy ijtimoiy xotira esa millatning ozod va erkin bo‘lishida ma’naviy kuch beradi. “Xalqimizning necha ming yillik tarixi mobaynida orzu-armon bo‘lib kelgan Istiqlolning ahamiyati to‘g‘risida o‘zbek olim va mutaxassislarining fikri yakdil: mustaqillik bizga bergan eng ulug‘ ne’matlardan biri bu tarixiy o‘zlikni anglashdir. O‘zlikni anglash esa tarixiy haqiqatni chuqur bilish, tarixiy xotirani avaylab-asrash, tarixiy adolatni tiklashdir [8;45-b.]. Milliy o‘zlikni anglash omili jamiyatning har qaysi bosqichida jiddiy e’tiborni talab etib, xalqni yagona mafkura atrofida birlashtiradi.

O‘zlikni anglash tufayli shaxsda o‘tmishga nisbatan ma’naviy yaqinlik tuyg‘usi shakllanadi, milliy tarixni bilishga intilish kuchayadi. Zero, “tarixiy xaqiqatni anglash uchun, ayniqsa, o‘tmishi soxtalashtirilgan, boy ma’naviy va madaniy merosidan ajratib tashlangan, zo‘ravonlik va hukmron g‘oyalarga mahkum etilgan, unga xizmat qildirilgan tarix xaqiqatini qayta tiklash uchun ana shunday ma’naviy-ruhiy yaqinlikni his etish, o‘sha jarayonlarni bevosita qalb orqali o‘tkazish zarur” [6;20-b.]. Bugungi kunda ijtimoiy xotira “o‘tmish haqidagi tasavvurlarimizni shakllantirishdagi ijtimoiy omil” bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim.

Xulosa. Tafakkur murakkab ma’naviy tarbiya jarayonining metodologik asosi sifatida, avvalo, inson va jamiyat, o‘tmish va kelajak o‘rtasida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarni zamonaviy qarashlar asosi-

da anglash imkonini beradi, dunyoqarash tamoyillarini shakllantiradi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Insonning o‘z o‘tmishi va kelajagi o‘rtasida vositachi, bog‘lovchi ko‘prik vazifasini aynan tarixiy idrok va tasavvur bajaradi. Bu jarayonda tarixiy bilim, sezgi, idrok va tarixiy dunyoqarash muayyan tizim sifatida shakllanib, o‘rganilayotgan voqea-hodisalarni ongda o‘zaro bog‘liq holda tartibga solishga xizmat qiladi. Natijada mazkur omillar muayyan tarixiy hodisa va jarayonlarni inson ongida chuqur idrok etishga ko‘maklashuvchi muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Маврулов А. Ватанни севиш масъулияти. Тошкент, “Sano-standart”, 2015, 46-бет.

(2). Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016, 486-бет.

(3). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини яна-да ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-farmoni. “Халқ сўзи”, 2017 йил 8 февраль.

(4). https://lex.uz/docs/5841063#5844411

(5). https://regulation.gov.uz/uz/d/31751

(6). Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 16-бет.

(7). Соколов А.В. Общая теория социальной коммуникации. Учебное пособие, СПб, изд-во Михайлова В.А., 2002, 56 с.

(8). Ҳайдаров А. Тарих – энг улуғ муаллим. Ижтимоий фикр. “Инсон ҳуқуқлари”, 1998, 4-сон, 45-бет.